

MAHMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONU LUG'OTIT TURK"DAGI SHAKLINI HAM, MAZMUNINI HAM SAQLAGAN IDIOMALAR TAHLILI

Bobojonova Dilnoza Oxunjonovna

Osiyo xalqaro universiteti

dilnozabobojonova22@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8341117>

Annatsiya. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari o'zbek tili tarixida yaratilgan asar. Olim bu asar ustida uzoq yillar ishladi, ko'p yillar yurtma-yurt kezib material to'pladi, turkiylar yashagan keng va katta hududni birma-bir kezib chiqdi, urug'lar, qabilalar, xalqlarning turmush tarzini, urf-odatlarini, kasb-korlarini, turar joylarini, nufuzlarini aniqladi va ularning tillariga xos xususiyatlarni sinchiklab o'rgandi. Shunga ko'ra, bu asarni chuqur o'rganish fan oldida turgan asosiy vazifa.

Kalit so'zlar: "Devonu lug'otit turk" asari, idioma.

ANALYSIS OF IDIOMS THAT PRESERVE BOTH FORM AND CONTENT IN MAHMUD KASHGARI'S "DEVONU LUG'OTIT TURK"

Abstract. Mahmud Kashgari's work "Devonu Lugotit Turk" is a work created in the history of the Uzbek language. The scientist worked on this work for many years, traveled around the country and collected material for many years. , determined their residences, influence and carefully studied the characteristics of their languages. Accordingly, a deep study of this work is the main task of science.

Key words: "Devonu Lugotit Turk" work, idiom.

АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ, СОХРАНЯЮЩИХ И ФОРМУ, И СОДЕРЖАНИЕ В ПРОИЗВЕДЕНИИ МАХМУДА КАШГАРИ «ДЕВОНУ ЛУГЪОТИТ ТЮРК»

Аннотация. Произведение Махмуда Кашгари «Девону Луготит Тюрк» — произведение, созданное в истории узбекского языка. Ученый много лет работал над этой работой, много лет путешествовал по стране и собирал материал, определял их места жительства, влияние и тщательно изучал особенности их языков. Соответственно, глубокое изучение этой работы является основной задачей науки.

Ключевые слова: произведение «Девону Луготит Тюрк», идиома.

Qoraxoniylar davrining eng asosiy adabiy va lingvistik yodgorliklaridan biri Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" nomli qomusiy asaridir. Bu asar turkiy tillarning o'sha davrdagi fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, dialektal xususiyatlari haqida to'la ma'lumot beruvchi qimmatli manbadir. Shu bilan birga turkiy xalqlarning xalq og'zaki ijodi namunalarini aks ettirgan yirik badiiy asardir.

"Devonu lug'otit turk" dagi maqollarni hozirgi davr nuqtai nazaridan 2 turga ajratish mumkin:

I. "Devonu lug'otit turk" da ham, hozirda ham mavjud bo'lgan maqollar.

Bu o'z navbatida uchga bo'linadi:

I. 1. "Devonu lug'otit turk" dagi shaklini ham, mazmunini ham saqlagan maqollar.

"Devonu lug'otit turk" da mavjud bo'lib, hozirda iste'moldan chiqqan maqollar:

1. *Анасї тәшлүк жуwқа жанар, оғлї тәтїк қоша қанар* – onasi hiyla qilib yupqa non yopsa, bolasi ziyraklik qilib qo'sha-qo'sha (ikkita-ikkitanadan) og'ziga soladi [III, 41].
2. *Јазїн әрсә кәрәл јундакї тәзїр* – dushmaningda bo'lsa ham mol bo'lsin, eng kami dushman otining tezagi tegadi, uni yoqib foydalanasan [III, 51].
3. *Бор болмазїн сїркә болма* – sharob bo'lishdan oldin sirka bo'lma [III, 133].
4. *Сүгүт сөліңә қазїң қасїңа* – tol daraxti uchun namlik qancha yaxshi bo'lsa, qayin daraxtiga qattiqlik shuncha munosib [III, 148].
5. *Јарїн булғанса, әл булғанур* – kift suyagiga kulfat yetsa, mamlakatga kulfat yetadi [III, 28].
6. *Таз ат тафарчї болмас* – terisi yo'l-yo'l olacha ot yuk tashiydigan bo'lmaydi. Chunki uning tirnog'i yomondir [III, 163].
7. *Бїр тојїн баши әрїса қамуғ тојїн баши әрїмас* – bir din boshlig'ining boshi og'risa hamma din boshliqlarini boshi og'rimaydi. Bu maqol o'rtoqlari orasida ular yegan narsani yeyishdan tortingan kishilarga nisbatan qo'llaniladi [III, 184].
8. *Ім билсә әр өлмәс* – im bilsa er o'lmas (kishi yashirin belgini bilsa, nohaq o'lmaydi) [I, 74].
9. *Күндә ірүк жоқ, бәгдә қїїк жоқ* дейдилар – quyosh kulchasida darz (teshik) yo'q bo'lganiday, bek va'dasida ham xilofgarchilik qaytish yo'q [I, 100].
10. *Јїрақ јәр савїн арқїи кәлдүрүр* – uzoq shahar (yer) xabarini karvon keltirar [I, 122].
11. *Чақса тўтўнўр, чалса билінўр* — chaqmoq tosh chaqilsa, olov tutadi, so'z eshitilsa, maqsad bilinadi [II, 31].
12. *Әл қалдї тўрў қалмас* - shahar tashlanar, rasmi tashlanmas. Bu maqol odam rasmga qarab ish qilishiga undab aytiladi [II, 32].
13. *Тўтўшмәгїнчә тўзўлмәс тўбїрмәгїнчә ачилмас* Urushmaguncha, qarshilashmaguncha, yarash bo'lmaydi, shamol qo'zg'olmaguncha, havo ochilmaydi. Bu maqol qarshilashgan ikki kishi orasini kelishtirish ulfatlashtirish istagan kishiga nisbatan qo'llanadi [II, 75].
14. *Тўтўн қонурса, іуләнўр* — kim tutunni qo'zg'otsa, o'ziga tutaydi. Bu maqol biror fitnani qo'zg'atgan kishiga ham u *Әwlik тозғурса көзі јолқа болур* fitna alami yetadi, degan maqsadda qo'llanadi [II, 75].
15. *Әwlik тозғурса көзі јолқа болур* — uy egasi mehmonni to'ydirsa, mehmon ko'zi ketishga o'tlanib, yo'lda bo'ladi. Bu maqol ziyofatdan so'ng ketmoq uchun uzr so'ragan mehmonga nisbatan qo'llanadi [II, 205].
16. *Тамсїз тўрк болмас, баицїз бөрк болмас*. Forslar bor yerda turklar albatta bor. Boshsiz bo'rk bo'lmagani kabi, turksiz fors bo'lmaydi. Bosh bor yerda bo'rk, albatta, bor [II, 306].
17. *Қїлїч татїқса іи јунчїр, әр татїқса әт тунчїр* — qilich zanglasa, botirning holi yomon bo'ladi. Chunonchi, turk eronli axloqi bilan yursa, go'shti o'zgaradi – hidlanadi. Bu maqolni botirlikka undalgan kishi haqida har jinsning o'z jinsi bilan yashashi haqida aytiladi [II, 326].
18. *Опрақ јасїқдїн тозлуғ ја чїқар* — eski yoy idishidan buklangan yoy ham chiqadi [II, 24].

19. *Kimın bila qaıı bolca, jaiın jaqmas* (хикматли сўз) — qosh toshi (u bir oq, tiniq toshdir, odamlar uni uzukka ko'z qilib taqadilar) kimda bo'lsa, unga chaqmoq zarar bermaydi. Chunki u toshning tabiati shunday. Hattoki, u toshni bo'zga o'rab o'tga tashlansa, bo'z ham, tosh ham kuymaydi. Bu sinalgandir. Tashna odam og'ziga qo'ysa, tashnalikdan qutuladi [II, 28].

20. *Qilnu bilcä, qizil kēzär, jaranu bilcä, jaiıl kēzär* – хотин nozu karashmani bilsa qizil rang ipakli kiyadi, yoqishni bilsa, ko'k ipakli kiyadi, ya'ni er hurmatiga sazovor bo'lgan kiyim kiyinadi [I, 28].

21. *Kūmūıı kūngä urca altun azaqın kēlir* — кумуш куёшга қўнса, олтин ўз оёғи билан келади. Бу мақолни маълум мақсадни амалга ошириш учун пулни аямай сарф қилишга ундаб айтилади [I, 177].

22. *Alıplar biplä uruşma, bēglär biplä turuşma* — ботирлар билан уришма, амирлар билан хусуматлашма, тиклашма [I, 192].

23. *Jalıñuq urulmıı qan ol, ağı jaziīb alqınur* — одам боласи пуфлаб шиширилган меш кабидир; оғзи очилса, ел уни йўқотади, сўндиради [I, 204].

24. *Bir tuijın baiı ağısa, qamug tuijın baiı ağımas* — бир ғайри дин каттасининг боши оғриса, ҳаммасининг боши оғримайди. Бу мақол дўстлари мувофиқ топиб истаганлари, еган-ичганлари ҳолда, бирининг буни истамаганлигини англатиш учун қўлланади [I, 272].

25. *Alım kēç qalca, azaqlanur* — олинадиган нарса қарздорда узоқ вақт қолса, оёқ чиқаради, яъни қарз берган одам қарзини ундириш учун унинг кетидан юради [I, 288].

26. *Köl ürgünçä köz ürsä jēg* — кулни пуфлагунча, чўғни пуфлаган яхши. Бу мақол кичик ишни ташлаб катта ишга уринувчиларга айтилган [I, 324].

27. *Kul jağı it böri* — кул душман, у қўлидан келса эгасининг молидан олиб, фурсат топиб қочишни пайига тушади. Ит ҳам хонадон учун бўридир. Чунки у ейдиган нарса топса, ундан ўзини тия олмайди. Бу мақол қулнинг хўжайинига кам вафо қилишини билдириш учун сўзланади [I, 324].

Maqollarning “Devonu lug'otit turk” da mavjud bo'lgan mazmuni saqlangan holda obrazlar tizimi o'zgarishining, bir qismi unutilib, qolgan qismi saqlanishining yoki asarda mavjud bo'lib, hozirda iste'moldan chiqqishining qator sabablari bo'lib, ularni ilmiy tadqiq etish kelgusidagi ishlarimizdandir.

REFERENCES

1. Жузе П.К. Диван лугат ат-турк // Известия Восточного факультета Азербайджанского Государственного университета. т. I. -Баку, 1926; т. II. -Баку, 1928.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли. / А.Мадвалиев таҳрири остида. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006- 2008.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. -Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Тошкент: Университет, 2000.
5. Кошғарий М. Девону луғотит турк (Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов). Т. I-II-III. –Тошкент: Фан, 1960-1963. Т. I. 1960. –529 б.; Т. II. 1961. – 488 б.; Т. III. 1963. – 468 б.

6. Маллаев Н. Эски ўзбек адабий тили. // Илмий асарлар, V китоб, Ўзбек адабиёти. – Тошкент: 1962. –Б. 74-80.
7. Маллаев Н. Энг қадимги оғзаки адабиёт ёдгорликлари. // Тил ва адабиёт масалалари, XIX том. –Тошкент: 1961. –Б. 69-81.
8. Муталлибов С. ”Девону луғотит турк”нинг ўзбек тилига муносабати масаласи // Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I том. – Тошкент: Фан, 1960.
9. Муталлибов С. Морфология ва лексика тарихидан очерк. - Тошкент: Фан, 1950.
10. Мухторов А., Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. -Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
11. Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. -Тошкент: Ўқитувчи, 1994.